TSUE

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

Yashil iqtisodiyot&taraqqiyot ilmiy-elektron jurnal

2026-YIL / IYUN/6-SON, VI-QISM

Google Scholar

OpenAIRE

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*
*VI-qism*

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO‘G‘RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI ....................12
**Abdullayev Azamat Akbar o‘g‘li**

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА....................17
**Джуманиязова Сабина Михайловна**

PAXTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQISH ....................22
**Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich**

O‘ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR....................29
**Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o‘g‘li**
**Akbarov Diyorbek Ashirali o‘g‘li**

TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS....................32
**F. Djalilov**

O‘ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH ....................41
**Abdullayev Axror Jaxbarovich**

ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН....................47
**Махкамова Надира Саидмуратовна**

MINTAQA TUMANLARI O‘RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIKLARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) ....................55
**Ergashev Sherali Erali o‘g‘li**

BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODELDAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O‘TISH TENDENSIYALARI (2020–2024-YILLAR)....................60
**Ergashev Sherali Erali o‘g‘li**

IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH....................65
**Tashmatov Shuhrat Hamrayevich**

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO‘RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI....................71
**Xalimov Shaxboz Xalimovich**

O‘ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI ....................77
**Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna**
**To‘rayev Mirzohid Hoshim o‘g‘li**

SUN’IY INTELLEKTNING O‘ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI ....................83
**Hamidova Shahzoda Odiljanovna**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI ........ 88
Sabirova Nodira Komil qizi

RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI ........ 95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi

XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI ........ 101
Avazbek Xalbekov

IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC ........ 108
Musaeva Shoira Azimovna

YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI ........ 116
Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 122
Анвар Аллабергенов

RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI ........ 128
Allanazarova B.K.

BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI ........ 135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna

KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH ........ 139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li

KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH ........ 149
Razikov Otabek Rustamovich

O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI ........ 157
Matkabulova Dilorom Xalilullayevna

MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida) ........ 165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich
Narmetova Dilafruz Azamatovna

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ ........ 170
Ахмедова Шахноза Козим кизи

KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ........ 175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li

O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH ........ 181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna

ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ ........ 189
Джусупов Кубанычбек

ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEXANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR........ 196
Shamuratov Shahzod Janibek o‘g‘li

SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH ........ 200
Eshov Sherko‘zi Asatulloyevich

THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES ........ 205
Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna

DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS ........ 209
Khanifakhon Solikhova

BANDLIKNI TA’MINLASHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida)........ 213
Z. Sh. Matniyozova

JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASH VA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI PROGNOZLASH ........ 218
Umirova Gulmira Shodiboy qizi

ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА........ 224
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович

KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI........ 233
Komilova Guli Bagandik qizi

THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN PROMOTING GREEN ECONOMIC GROWTH: EVIDENCE FROM CENTRAL ASIAN ECONOMIES........ 238
Eshboyev Mirjalol Baxrom o‘g‘li
Ozatbekova Ozodaxon Nodirbek qizi

ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЕ ИНТЕРВАЛЬНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ СРЕДНЕГО ЗНАЧЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ, ПРИТЯГИВАЮЩЕГОСЯ К УСТОЙЧИВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ........ 250
Турсунов Гафур Таирович

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH........ 259
Ibragimov Nodirbek Baxodir o‘g‘li

DEMOKRATIK TANLOV VA PROGRESSIV SOLIQQA TORTISHNING BARQARORLIGI ........ 266
Malika Sharipova Maxmudjon qizi

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL ENERGETIKA MANBALARINI UTILIZATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI........ 273
Ibadov Shoxrux Axmatilloyevich

EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ASOSIDA TEMIR YO‘L TRANSPORTI IQTISODIY FAOLIYATINI PROGNOZLASH: 2030-YILGACHA SSENARIY TAHLILI........ 277
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI KORXONALARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA MARKETING DASTURINING O‘RNI........ 283
Musayeva Shoira Azimovna

O‘ZBEKISTONDA ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG‘URTA QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 289
Karimberdiyeva Dilrabo Rasulovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

BANK TAVAKKALCHILIKLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 296
Matkarimova Ayman Jengisbaevna
O'ZBEKISTONDA AGROSUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI ........ 303
Jo'rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi
BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI ........ 309
Mustafayeva Sevara Rustamovna
O'ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI ........ 314
Qodirova Farangiz Komilovna
COMPARATIVE ANALYSIS OF TOURISTS' HOTEL SELECTION PREFERENCES IN THE MAJOR TOURISM REGIONS OF UZBEKISTAN ........ 320
Sardor Kuvandikov
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI ........ 329
Madenova Elmira Nizamatdinovna
BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI ........ 334
Shoyev Davronbek Axmadjonovich
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHI KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA TARMOQNI 2032-YILGACHA RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASH ........ 340
Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJINING DRAYVERI SIFATIDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH ........ 349
Jannazarova Gauxar Kaipnazarovna
Raxmatova Sevinch Sobir qizi
O'ZBEKISTONDA IFRSGA O'TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING BOSHQARUV QARORLARIGA TA'SIRI: UZAUTO MOTORS MISOLIDA ........ 353
Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li
Jo'rayeva Zahro Toshpo'latovna
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI ........ 358
Pyotr Kim
TOSHKENT VILOYATI BO'STONLIQ TUMANIDA TURISTIK ZONALARNI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIYIQTISODIY AHAMIYATI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA) ........ 364
Tolibboyev Zafarbek Axror o'g'li
TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 372
Qarshiboyev Lochinbek Xusan o'g'li
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ........ 379
Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich
QASHQADARYODA NODAVLAT UNIVERSITETLARINING TASHKILIY RIVOJLANISHI: TALABALAR VA XODIMLAR POTENSIALINI TARKIBIY VA DEMOGRAFIK TAHLIL ........ 382
Rahimov Sardor Uralovich

O‘ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING JOYLASHUVINING HOZIRGI HOLATI ........ 388
**Kudratov Muhammad Rustamovich**
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STATISTIK MA’LUMOTLARNI SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TAHLIL QILISH IMKONIYATLARI ........ 393
**Umarov Abbos Nuriddin o‘g‘li**
ТРАНСФОРМАЦИЯ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ, СТРУКТУРНАЯ ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ И СЦЕНАРИИ РАЗВИТИЯ ........ 400
**Муниса Турдибаева**
TURIZM SOHASIDA SIRKULYAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI ........ 410
**Yuldosheva Laylo Isroilovna**
MINTAQAVIY IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI ........ 416
**Oramov Jahongir Jo‘rayevich**
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH ........ 421
**Ollokulova Feruza Mansurovna**
O‘ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA YUQORI TEXNOLOGIK USKUNALARNI XARID QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UMUMIY EGALIK QIYMATI (TCO) KONSEPSIYASINING AHAMIYATI ........ 428
**Dadamuxamedov Abduvaxob Abduvaxidovich**
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISH HAMDA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 433
**Xalilov Bahromjon Bahodirovich**
O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING SAMARADORLIGINI TA’MINLASHDA ZAMONAVIY SUG‘URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH ........ 441
**Kalenov K.T.**
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 445
**Sobirov Sayfiddin Baxrom o‘g‘li**
ADIR EKOTIZIMLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI KO‘RSATKICHLARI TAHLILI ........ 455
**Qodirov Hamidullo Madaminjonovich**
AQSH VA XITOY O‘RTASIDAGI SAVDO URUSHINING JAHON IQTISODIYOTIGA TA’SIRI ........ 466
**Maxmudillayev Bahromjon Shavkatjon o‘g‘li**
O‘ZBEKISTON FERMERLARINING XALQARO BOZORLARGA KIRISHINI KENGAYTIRISHDA EKSPORT KOOPERATSIYALARIDA ISHTIROK ETISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI MARJINAL BAHOLASH ........ 472
**Tursunqulov G‘olibjon Shavkat o‘g‘li**
TECHNOLOGY AND MODERN TOURISM: PAVING THE WAY FOR A SUSTAINABLE ENVIRONMENT ........ 482
**Freshta Qayoumi**
SUG‘URTA KOMPANIYALARIDA INVESTITSIYA PORTFELINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI ........ 488
**Ergashev Olim Kenjayevich**
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG‘URTA SEKTORIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI ........ 496
**Ergashev Olim Kenjayevich**
ВЛИЯНИЕ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИИ РЕСУРСНОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКОНОМИКИ ........ 503
**Т.В. Ким**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI AUDITIGA KOMPYUTERLASHTIRILGAN AUDIT USULLARI (CAATS) VA TAHLILIY AMALLARNI JORIY ETISH ........ 509
**Ibragimov Nodirbek Baxodir o‘g‘li**

JAMIYAT EVOLYUSIYASIDA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNING AHAMIYATIGA DOIR NAZARIY TALQINLAR ........ 516
**Aripov Oybek Abdullayevich**
**Rustamov Dilshodjon Shaydullo o‘g‘li**

SUG‘URTA FAOLIYATINI BOSHQARISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI ........ 523
**Umarova Aziza Hamidovna**

O‘ZBEKISTON MAJBURIY SUG‘URTA BOZORIDA TARIF SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 529
**Qo‘ziyeva Nozima G‘ayrat qizi**

O‘ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI FAOL JALB QILISH XUSUSIDA ........ 535
**Artikbayev Dilshod Mumindjanovich**

O‘ZBEKISTONDA DUKKAKLI EKINLAR BOZORIDA NARX O‘ZGARUVCHANLIGI VA FERMERLARNING DAROMAD BARQARORLIGI ........ 541
**Islamova Malika Ilyos qizi**

# O‘ZBEKISTONDA DUKKAKLI EKINLAR BOZORIDA NARX O‘ZGARUVCHANLIGI VA FERMERLARNING DAROMAD BARQARORLIGI



**Islamova Malika Ilyos qizi**
**Toshkent davlat agrar universiteti**
**Agroiqtisodiyot kafedrasi**
**Tayanch doktorant (PhD)**
**ORCID: 0009-0000-8674-0277**
**E-mail: m.islamova@tdau.uz**

**Ilmiy rahbar: Muhammad Ali Hakimovich Saidov**
**Toshkent davlat agrar universiteti**
**Agroiqtisodiyot kafedrasi**
**i.f.d., professor**
**ORCID: 0000-0003-1996-2878**
**E-mail: m.saidov@tdau.uz**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda dukkakli ekinlar bozorida narx o‘zgaruvchanligi va uning fermerlar daromadi barqarorligiga ta’siri tadqiq etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Markaziy bankning rasmiy statistik ma’lumotlari asosida tahlil amalga oshirilgan. 2021-yilda mamlakatimizda jami 573 ming tonna dukkakli don mahsuloti yetishtirilganligi va “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhida iste’mol narxlari indeksining 77,5 foizdan 105,4 foizgacha tebranib turishi aniqlangan. Yillik inflyatsiya 2019–2024-yillarda 8,77 foizdan 15,2 foizgacha o‘zgargan. Maqolada qo‘shni mamlakatlar – Qozog‘iston va Rossiya tajribasi bilan qiyosiy tahlil o‘tkaziladi. Narx barqarorligini ta’minlashda raqamli monitoring, forvard shartnomalar tizimi va ixtiyoriy hosil sug‘urtasi eng istiqbolli mexanizmlar sifatida ko‘rib chiqiladi hamda ularni O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

**Kalit so‘zlar:** dukkakli ekinlar, narx o‘zgaruvchanligi, fermer daromadi, oziq-ovqat xavfsizligi, agrar bozor, qiyosiy tahlil, O‘zbekiston.

**Abstract.** This article examines price volatility in the legume crop market of Uzbekistan and its impact on the income stability of farmers. The analysis is based on official statistical data from the State Statistics Committee, the Ministry of Agriculture, and the Central Bank of the Republic of Uzbekistan. It was established that in 2021, a total of 573,000 tonnes of legume crops were produced in the country, and the consumer price index for the “Vegetables, root crops and legumes” group fluctuated between 77.5% and 105.4%. Annual inflation during 2019–2024 ranged from 8.77% to 15.2%. The article conducts a comparative analysis with the experience of neighbouring countries — Kazakhstan and Russia. Digital price monitoring, a forward contract system, and voluntary crop insurance are examined as the most promising price stabilisation mechanisms; practical recommendations for their adaptation to Uzbekistan’s conditions are proposed on the basis of international experience.

**Keywords:** legume crops, price volatility, farmer income, food security, agricultural market, comparative analysis, Uzbekistan.

**Аннотация.** В данной статье исследуется волатильность цен на рынке зернобобовых культур Узбекистана и её влияние на стабильность доходов фермеров. Анализ проведён на основе официальных статистических данных Государственного комитета по статистике, Министерства сельского хозяйства и Центрального банка Республики Узбекистан. Установлено, что в 2021 году в стране было произведено в общей сложности 573 тысячи тонн зернобобовых культур, а индекс потребительских цен по группе «Овощи, корнеплоды и зернобобовые» колебался от 77,5% до 105,4%. Годовая инфляция в 2019–2024

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY

годах варьировалась от 8,77% до 15,2%. В статье проводится сравнительный анализ с опытом соседних государств — Казахстана и России. Цифровой мониторинг цен, система форвардных контрактов и добровольное страхование урожая рассмотрены как наиболее перспективные механизмы обеспечения ценовой стабильности; на основе зарубежного опыта предложены практические рекомендации по их адаптации к условиям Узбекистана.

**Ключевые слова:** зернобобовые культуры, волатильность цен, доходы фермеров, продовольственная безопасность, аграрный рынок, сравнительный анализ, Узбекистан.

## KIRISH

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash zamonaviy dunyo iqtisodiyotining ustuvor vazifalaridan biri sifatida tan olingan. Bu yo‘nalish O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida [1] ham ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. O‘zbekistonda aholi parhezi tarkibida muhim o‘rin tutuvchi dukkakli ekinlar – mosh, loviya, fasol va no‘xat kabi oqsil, mineral moddalar va vitaminlarning asosiy manbai hisoblanadi. Mamlakatimiz aholi sonining tez o‘sishi – 2021-yildagi 34,9 million kishidan 2023-yilda 36,4 million kishiga yetishi [2] oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash zaruriyatini yanada oshirmoqda.

2016–2022-yillarda amalga oshirilgan agrar islohotlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-noyabrdagi PQ–10-sonli “G‘alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta’minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori [3] qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorini erkinlashtirishga xizmat qildi. Bir tomondan, bu islohotlar fermerlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil qaror qabul qilishiga zamin yaratdi. Boshqa tomondan, bozordagi narxlar o‘zgaruvchanligi sezilarli darajada kuchaydi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotiga ko‘ra [4], 2023-yilning yanvar–sentabr oylarida don va dukkakli don ekinlari ishlab chiqarish 6 972,1 ming tonnani tashkil etib, so‘nggi yilga nisbatan 3,3 foizga o‘sgan. Biroq miqdoriy o‘sish narxlar barqarorligini kafolatlamayapti.

Narxlar o‘zgaruvchanligi sharoitida fermerlar kelgusi mavsum uchun ishlab chiqarish hajmini rejalashtirish, zarur xarajatlarni moliyalashtirish va daromad barqarorligini ta’minlash imkoniyatlari cheklanmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, dukkakli ekinlar yetishtirishga qiziqishning pasayishi va importga bog‘liqlikning ortishiga olib kelishi mumkin, bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash jarayoniga qo‘shimcha bosim yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi:

– O‘zbekistonda dukkakli ekinlar bozorida narx o‘zgaruvchanligini rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilish;

– qo‘shni mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil o‘tkazish;

– fermerlar daromad barqarorligiga ta’sirini baholash;

– bozorni barqarorlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida narx o‘zgaruvchanligi muammosi xalqaro ilmiy adabiyotda keng o‘rganilgan. Wright [5] ta’kidlaganidek, don va dukkakli ekinlar narxlarining yuqori darajada tebranishi fermerlarning ishlab chiqarish qarorlariga ta’sir ko‘rsatishi hamda uzoq muddatli investitsiyalar hajmini kamaytirishi mumkin. Anderson va Nelgen [6] o‘tkazgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mamlakatlar narxlar o‘zgaruvchanligini kamaytirishga qaratilgan davlat siyosati choralarini qo‘llagan, biroq eksport cheklovlari kabi proteksionistik — milliy bozorni himoya qilish maqsadida eksport yoki importga qo‘yiladigan cheklovlar — choralar ko‘pincha narxlar beqarorligini yanada oshirgan.

Qozog‘iston tajribasi bu borada alohida diqqatga sazovor. OECD [7] hisobotiga ko‘ra, Qozog‘iston “KazAgro” davlat holdingiga asoslangan oldindan belgilangan narxlarda g‘alla sotib olish mexanizmini joriy etgan. Shuningdek, 19 ta ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsuloti uchun narxlarni barqarorlashtirish fondlari va imtiyozli aylanma kreditlar tizimi qo‘llanilmoqda [7]. Biroq tadqiqotlar barqarorlashtirish fondlarining narxlarni haqiqiy boshqarishdagi samaradorligi cheklangan ekanligini ham ko‘rsatmoqda [8].

Rossiya tajribasiga ko‘ra [9], eksport cheklovlari siyosati narxlarni barqarorlashtirish o‘rniga ichki bozor barqarorligiga qo‘shimcha bosim yuzaga keltirgan. Tadqiqotchilar [10], o‘z navbatida, eksport cheklovlari o‘rniga texnologik modernizatsiya, institutsional islohotlar va maqsadli dasturlarni amalga oshirishni tavsiya etmoqda.

O‘zbekiston bo‘yicha esa dukkakli ekinlar bozorini alohida obyekt sifatida o‘rganib, narx o‘zgaruvchanligi va fermer daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy tahlil qilgan maxsus tadqiqotlar hozircha yetarli emas. Aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish mazkur maqolaning asosiy yangiligi va dolzarbligini belgilab beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda miqdoriy yondashuv qo'llanilgan. Asosiy statistik usullar: vaqt qatorlari tahlili (time series analysis), o'zgaruvchanlik koeffitsienti (CV — Coefficient of Variation), tavsifiy statistika va qiyosiy tahlil (comparative analysis). Tadqiqot davri: 2019–2024-yillar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1.1. Dukkakli ekinlar yetishtirilish hajmi

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi [15] rasmiy hisobotiga ko'ra, 2021-yilda mamlakatimizda jami 573 ming tonna dukkakli don mahsuloti yetishtirilgan. Milliy statistika qo'mitasining 2023-yilgi rasmiy ma'lumoti [4] bo'yicha 2023-yilning yanvar–sentabr oylarida don va dukkakli don ekinlari ishlab chiqarish 6 972,1 ming tonnani tashkil etdi — 2022-yilga nisbatan 3,3 foizga o'sish kuzatilgan. 2021-yilda 128 ming tonna mosh eksport qilinib, 102,5 million AQSH dollari daromad olingan.

1-jadval

O'zbekistonda 2021-yilda yetishtirilgan dukkakli don ekinlari tarkibi[1]

| Ekin turi | Yetishtirilgan (ming t.) | Ulushi (%) | Eksport (ming t.) |
|---|---|---|---|
| Mosh (Vigna radiata) | 360,2 | 62,9 | 128,0 |
| Yer yong'oq | 91,7 | 16,0 | — |
| Loviya (Phaseolus vulgaris) | 46,4 | 8,1 | — |
| Fasol | 38,1 | 6,7 | — |
| No'xat (Cicer arietinum) | 36,2 | 6,3 | — |
| JAMI | 573,0 | 100,0 | 128,0 |

Toshkent viloyati bo'yicha 2024-yilning yanvar–iyun oylarida don va dukkakli don yetishtirilishi 353,2 ming tonnani tashkil etdi — bu 2023-yilning mos davriga nisbatan 16,6 foizga o'sishni bildiradi [18]. Bu ko'rsatkich mamlakatimizda dukkakli ekinlar ishlab chiqarishining barqaror o'sib borayotganligini tasdiqlaydi.

**1.2. Inflyatsiya va narx o'zgaruvchanligi dinamikasi**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki [16] va Milliy statistika qo'mitasi [11, 12, 13, 14] rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2019–2024-yillardagi yillik umumiy inflyatsiya dinamikasi quyidagicha bo'lgan:

2-jadval

O'zbekistonda yillik inflyatsiya dinamikasi (2019–2024), rasmiy ma'lumotlar[2]

| Yil | Yillik inflyatsiya (%) | Asosiy omil |
|---|---|---|
| 2019 | 15,2 | Bozor liberallashuvi |
| 2020 | 11,1 | COVID-19 ta'siri pasayishi |
| 2021 | 9,98 | Tarixiy past daraja |
| 2022 | 12,3 | Global energiya/oziq-ovqat narxlari |
| 2023 | 8,77 | Inflyatsion targetlash (MB ning maqsadli inflyatsiya siyosati) samarasi |
| 2024 | 9,8 | Oziq-ovqat inflyatsiyasi: +2,4% |

Alohida e'tiborga molik holat: Milliy statistika qo'mitasi [4] rasmiy ma'lumotiga ko'ra, 2024-yilning yanvar–iyun oylarida "Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar" guruhi bo'yicha INI 77,5 foizdan 105,4 foizgacha keng diapazonda tebranib turgan — bu barcha oziq-ovqat guruhlari ichida eng katta amplituda hisoblanadi. 2025-yil may oyida yangi hosil bozorga chiqishi bilan ushbu guruhda narxlar 10,7 foizga pasaygan [19].

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, 2022 [15].

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki [16] va O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [11, 12, 13, 14].

### 1.3. Narx oʻzgaruvchanligi omillari

Tadqiqot davomida dukkakli ekinlar bozorida narx oʻzgaruvchanligi uchta asosiy omil bilan bogʻliqligi aniqlandi.

3-jadval
Dukkakli ekinlar bozorida narx oʻzgaruvchanligining asosiy omillari[3]

| Omil turi | Muammo mazmuni | Ta'sir darajasi | Oqibat |
|---|---|---|---|
| Mavsumiylik | Yangi hosil chiqishi bilan narxlar sezilarli darajada pasayadi | Yuqori | Narx: –10,7% (may 2025) |
| Saqlash infratuzilmasi | Maxsus sovutish omborlari yetarli emas | Yuqori | Mavsumiy tebranish kuchayadi |
| Iqlim oʻzgarishi | Suv tanqisligi va anomal haroratlar | Oʻrta | Hosildorlik pasayadi |
| Bozor axboroti | Fermerlar narx prognoziga ega emas | Oʻrta | Asoslanmagan yoki kam samarali qarorlar |
| Eksport-import | Eksport-import tartiblaridagi oʻzgaruvchanlik | Past | Ichki bozor tebranadi |

### 1.4. Qoʻshni mamlakatlar bilan qiyosiy tahlil

Narx oʻzgaruvchanligini boshqarish tajribasini oʻrganish maqsadida Qozogʻiston va Rossiya misolida qiyosiy tahlil oʻtkazildi. Ushbu mamlakatlar ham Oʻzbekiston singari MDH makonidagi agrar iqtisodiyotlar boʻlib, oʻxshash muammolarga duch kelgan.

4-jadval
Oʻzbekiston, Qozogʻiston va Rossiyada agrar bozor barqarorlashtirish mexanizmlari: qiyosiy tahlil[4]

| Mexanizm | Oʻzbekiston | Qozogʻiston | Rossiya |
|---|---|---|---|
| Narx monitoringi | Rivojlanmoqda | Mavjud (19 ta mahsulot) | Mavjud |
| Barqarorlashtirish fondi | Yoʻq | Mavjud (cheklangan samara) | Mavjud |
| Forvard shartnomalar | Yoʻq | KazAgro orqali | Cheklangan |
| Hosil sugʻurtasi | 2026-yildan (50% subsidiya) | Mavjud | Mavjud |
| Imtiyozli kreditlar | Mavjud (garovsiz) | Mavjud (5% yillik) | Mavjud |
| Eksport cheklovlari | Vaqtincha qoʻllaniladi | Vaqtincha (ta'siri past) | Takroriy (salbiy oqibat) |

4-jadval tahlili shuni koʻrsatadiki, Qozogʻiston narxlarni barqarorlashtirish uchun kompleks mexanizmlar tizimini yaratgan: "KazAgro" davlat holdingi orqali oldindan belgilangan narxlarda sotib olish, 19 ta ijtimoiy ahamiyatli mahsulot uchun cheklangan narxlar va imtiyozli aylanma kreditlar [7]. Biroq OECD [7] ta'kidlaganidek, barqarorlashtirish fondlari oʻz maqsadiga toʻliq erisha olmadi va 2024-yildan boshlab narx tartibga solishini bosqichma-bosqich bekor qilish boshlandi.

Rossiya tajribasi [9, 10] eksport cheklovlarini ehtiyotkorlik bilan qoʻllash zarurligini koʻrsatadi. Tadqiqotchilar [10] buning oʻrniga texnologik modernizatsiya va institutsional islohotlarni tavsiya etmoqda.

Olib borilgan tadqiqot natijalari bir qancha muhim xulosalarni tasdiqlamoqda. Birinchidan, Oʻzbekistonda dukkakli ekinlar ishlab chiqarishi mutlaq hajmda barqaror oʻsmoqda: 2021-yilda 573 ming tonna, 2023-yilning 9 oyida esa 6 972,1 ming tonna don va dukkakli don ekinlari [4, 15] yetishtirildi. Bu ijobiy tendensiya oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, miqdoriy oʻsish bilan bir vaqtda narx barqarorligi muammosi hal etilmagan. "Dukkaklilar va sabzavotlar" guruhidagi INI (iste'mol narxlari indeksi) yillik 77,5–105,4% oraligʻida tebranishi [4] sezilarli amplitudani bildiradi. Bu holat fermerlarning daromad rejalashtirish imkoniyatini sezilarli darajada cheklashi mumkin va ishlab chiqarishga uzoq muddatli investitsiyalarni qiyinlashtiradi. Wright [5] oʻz tadqiqotida isbotlaganidek, bunday katta tebranishlar fermerlarning ishlab chiqarish qarorlariga bevosita ta'sir koʻrsatishi

3 Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi [4] ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
4 Manba: OECD [7], Kheifets va Chernova [9] hamda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

mumkin.

Uchinchidan, qiyosiy tahlil koʻrsatadiki, Qozogʻiston kompleks mexanizmlar orqali narxlarni nisbatan barqarorlashtira olgan [7], Rossiya esa eksport cheklovlari siyosati natijasida bozor barqarorligiga qoʻshimcha murakkabliklar keltirib chiqargan [9]. Oʻzbekiston uchun maqbul yoʻnalishlardan biri — Qozogʻistonning forvard shartnomalar — xaridor va fermer oʻrtasida mavsumgacha narxni oldindan belgilovchi shartnoma — va imtiyozli kreditlar tizimini milliy sharoitga moslashtirish, Rossiya tajribasida kuzatilgan eksport cheklovlari oqibatlarini ehtiyotkorlik bilan baholash.

Toʻrtinchidan, 2026-yildan joriy etiladigan ixtiyoriy sugʻurta tizimi va garovsiz kreditlar mavjud islohotlarning toʻgʻri yoʻnalishini koʻrsatadi. Biroq narxlarni barqarorlashtiruvchi maxsus mexanizmlar — forvard shartnomalar, raqamli narx monitoringi, saqlash quvvatlarini oshirish — hali yetarli darajada joriy etilmagan.

Tadqiqotning asosiy cheklovi sifatida quyidagini qayd etish lozim: mavjud rasmiy statistika dukkakli ekinlarni boshqa don ekinlaridan ajratmagan holda taqdim etadi. Fermer xoʻjaliklari darajasida maxsus soʻrovnoma oʻtkazish orqali toʻgʻridan-toʻgʻri daromad maʼlumotlarini toʻplash kelgusi tadqiqotning muhim vazifasi hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot shuni koʻrsatdiki, Oʻzbekistonda dukkakli ekinlar bozorida narx oʻzgaruvchanligi fermerlar daromad barqarorligiga taʼsir etuvchi muhim omillardan biri boʻlib qolmoqda. Quyidagi asosiy xulosalar chiqarildi.

Ishlab chiqarish oʻsmoqda, lekin narx barqarorligi masalasi dolzarbligicha qolmoqda: 2021-yilda 573 ming tonna [15], 2023-yilning 9 oyida 6 972,1 ming tonna [4] ishlab chiqarildi. Biroq “dukkaklilar” guruhida INI 77,5–105,4% diapazonida tebranmoqda [4].

Mavsumiy tebranish asosiy muammolardan biri: yangi hosil chiqishi bilan narxlar 10,7% ga pasayadi [19], saqlash infratuzilmasining yetarli emasligi bu tebranishni kuchaytiradi.

Qiyosiy tahlil yoʻl koʻrsatmoqda: Qozogʻiston tajribasi [7] forvard shartnomalar va kompleks mexanizmlar, Rossiya tajribasi [9] eksport cheklovlarining ehtiyotkorlik bilan qoʻllanishi zarurligini koʻrsatadi.

Davlat islohotlari toʻgʻri yoʻnalishda: 2026-yildan sugʻurta joriy etiladi, biroq bozor mexanizmlari toʻliq shakllanmagan.

Amaliy takliflar

– Raqamli narx monitoringi platformasi: barcha viloyatlar boʻyicha kunlik yangilanuvchi narx maʼlumotlari tizimini yaratish, bu fermerlarning asosli qarorlar qabul qilishiga imkon beradi;

– Forvard shartnomalar tizimi: fermerlar va qayta ishlash korxonalari oʻrtasida mavsumgacha narx belgilash mexanizmini Qozogʻiston tajribasi asosida huquqiy mustahkamlash;

– Saqlash infratuzilmasi: dukkakli ekinlar uchun maxsus sovutish omborlari va zamonaviy saqlash qurilmalarini davlat-xususiy sheriklik asosida qurish;

– Sugʻurta tizimini kengaytirish: 2026-yildan joriy etiladigan ixtiyoriy sugʻurtani dukkakli ekinlar yetishtiruvchilar uchun imtiyozli shartlarda, sugʻurta mukofotining 70 foiziga qadar davlat qoʻllab-quvvatlashi bilan amalga oshirish;

– Barqarorlashtirish fondi: dukkakli ekinlar bozori uchun maxsus narxlarni barqarorlashtirish fondini tashkil etish, bu Qozogʻiston tajribasidagi kamchiliklarni inobatga olgan holda yanada samarali mexanizmlar asosida tuzilishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022. https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2. Gazeta.uz. Oʻzbekiston aholisi 36,4 mln kishini tashkil etmoqda. – 2023-yil 9-avgust. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2023/08/09/population
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-noyabrdagi PQ–10-sonli “Gʻalla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni taʼminlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish toʻgʻrisida”gi Qarori. – Toshkent, 2021. https://lex.uz/uz/docs/-5729389
4. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi. Respublikamizda qancha don va dukkakli don ekinlari yetishtirilgan? – Toshkent, 2023. – URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/48691
5. Wright B. The Economics of Grain Price Volatility // Applied Economic Perspectives and Policy. – 2011. – Vol. 33. – P. 32–58. – DOI: https://doi.org/10.1093/aepp/ppq033
6. Anderson K., Nelgen S. Trade Barrier Volatility and Agricultural Price Stabilization // World Development. – 2012. – Vol. 40, No. 1. – P. 36–48.

7. OECD. Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2025: Kazakhstan. – Paris: OECD Publishing, 2025. – URL: https://www.oecd.org/en/publications/2025/10/agricultural-policy-monitoring-and-evaluation-2025
8. OECD. Competition in the Food Supply Chain: Kazakhstan. – Paris: OECD, 2024. – DAF/COMP/GF/WD(2024)51. – URL: https://one.oecd.org
9. Kheifets B.A., Chernova V.Yu. Effects of Export Control Policy on Food Security: The Case of the Grain Market in Russia // Studies on Russian Economic Development. – 2022. – Vol. 33. – P. 210–218.
10. Götz L., Djuric I., Glauben T. Wheat Export Restrictions in Kazakhstan, Russia, and Ukraine: Impact on Prices Along the Wheat-to-Bread Supply Chain // Research in Agricultural and Applied Economics. – 2015.
11. Daryo.uz. O‘zbekistonda yillik inflyatsiya darajasi keskin pasaydi. – 2022-yil 7-yanvar. – URL: https://daryo.uz/2022/01/07/ozbekistonda-yillik-inflyatsiya-darajasi-keskin-pastladi
12. Spot.uz. 2022-yilda O‘zbekistondagi inflyatsiya ko‘rsatkichlari. – 2023-yil 2-yanvar. – URL: https://www.spot.uz/oz/2023/01/02/inflation-2022
13. Daryo.uz. O‘zbekistonda inflyatsiya 8,76 foiz bilan rekord past darajaga tushdi. – 2024-yil 1-yanvar. – URL: https://daryo.uz/2024/01/01
14. Spot.uz. 2024-yilda O‘zbekistonda inflyatsiya darajasi 9,8 foizni tashkil etdi. – 2025-yil 1-yanvar. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/01/01/inflation-2024
15. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi. 2021-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot. – Toshkent, 2022. – URL: https://www.agro.uz/11-0012
16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik inflyatsiya ko‘rsatkichlari. – Toshkent, 2024. – URL: https://cbu.uz/uz/monetary-policy/annual-inflation/indicators
17. Food and Agriculture Organization of the United Nations. FAOSTAT Statistical Database. – Rome: FAO, 2024. – URL: https://www.fao.org/faostat
18. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. Viloyatning qaysi hududida eng ko‘p donli ekinlar yetishtirilgan? – Toshkent viloyati, 2024. – URL: https://toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/15600
19. Spot.uz. O‘zbekistonda agrar sohada to‘lov agentligi tashkil etiladi. – 2025-yil 18-noyabr. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/11/18/agrarian-payment-agency

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/6**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz